

Foydali maslahat tarzida

Bugun 9-dekabr TIQXMMI QXM fakulteti 1 – kurs talabalari bilan 8 – ma’ruzalar zalida institut psixologi M.K. Muxamedova ishtirokida “Psixolog bilan tanishuv” tadbiri o’tkazildi. Tadbirni QXM fakulteti yoshlar bilan ishlash dekan o’rinbosari H. Boymatov o’z kirish so’zi bilan ochib, so’z navbatini QXM fakulteti dekani Q. Shavvazovga berdi. Q. Shavvazov talaba yoshlar uchun kelajakda dasturilamal bo’lib xizmat qiladigan nutq so’zladi. Institutda talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan talabalarni tanishtirib o’tdi va talabalarga tezlik asrida insonlar hayotida psixolog mutaxassisining o’rni naqadar muhimligi haqida so’z yurtib, so’z navbatini institut psixologi M.K. Muxamedovaga berdi. M.K. Muxamedova institut psixologining vazifalari va institutda olib boradigan faoliyati to’g’risida talabalarga batafsil tushuncha berib o’tdi. Va barcha talaba yoshlarga sog’lom turmush tarzida yashashning naqadar muhimligi, stress va depressiya holatidan uzoq yurish sirlari haqida so’z yuritdi. Yig’ilish so’ngida talabalar institut psixologi va fakulteti yoshlar bilan ishlash dekan o’rinbosariga o’zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi. “Institut psixologi faoliyati” to’g’risidagi varaqalar tarqatildi va barcha talabalarga “Psixolog maslahati” kanaliga a’zo bo’lish tavsiya qilindi. Tadbir qizg’in tarzda o’z yakuniga yetdi.



Institut psixologi M.K. Muxamedova axboroti
TIQXMMI matbuot xizmati